

Matn vositasida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish

Shahzoda Abbos qizi Olimova

shahzodaolimova874@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mahliyo Ibraximjanovna Djakbarova

mahliyoibraximjonovna@gmail.com

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada matn orqali o'quvchilarning bilimlarini hamda ko'nikmalarini rivojlantirish yuzasidan tuzilgan topshiriqlar, matn tahlili bo'yicha nazariy ma'lumot, matn orqali o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish va Xalqaro IELTS imtihonlari bilan matn ko'nikmalarini qiyosiy tahlil etish to'g'risidagi fikrlar va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: matn, matn tahlili, "so'z mavjlanganda" matni, tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozma savodxonlik, xalqaro IELTS sertifikat

Formation of knowledge and skills through text

Shahzoda Abbos kizi Olimova

shahzodaolimova874@gmail.com

Scientific supervisor: Mahlyo Ibrahimzhanovna Dzhakbarova

mahliyoibrakhimjonovna@gmail.com

Samarkand State University Kattakorgan branch

Abstract: This article covers tasks for developing students' knowledge and skills through text, theoretical information on text analysis, broadening students' outlook through text, and comparative analysis of text skills with International IELTS exams.

Keywords: text, text analysis, "when the word waves" text, listening comprehension, reading comprehension, written literacy, international IELTS certificate

Ma'lumki, bugungi kunda yurtimiz yoshlari uchun, ularning sifatli ta'lim olishlari uchun davlatimiz tomonidan qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, kelajak avlodni barkamol, yetuk va dono yetishib chiqishi uchun ham barcha zarur harakatlar olib borilmoqda. Shu xususda, maktab ona tili darsliklarining yangi nashrlarda chop etilishi va o'zgartirishlar kiritilishi yuqoridagi gaplarimizning yorqin dalilidir. Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy ob'ekti sifatida talqin qilinadi. Matnni

tadqiq etishda uni soʻz birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham oʻz kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi. Tilshunos M.X.Hakimov ilmiy matn tadqiqiga bagʻishlangan dissertatsion ishida bu haqda shunday yozadi: “Matn” soʻzining lugʻaviy maʼnosida birikish, bogʻlanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi oʻzaro qaysidir bogʻlovchilar yordamida birikishini oʻrganish «Matn tilshunosligi» sohasining asosiy muammolaridan biri boʻlib qoldi. Matn birliklarining oʻzaro bogʻlanishini ifoda etuvchi takror va uning bir necha koʻrinishi, olmosh turkumiga oid baʼzi soʻzlar, gapning soʻroq shakliga xos boʻlgan koʻrinishining matn hosil qilishdagi vazifalari matn tilshunosligida alohida oʻrin tutadi.¹ Shunga koʻra, tilshunoslikda oʻtgan asrning 70-yillaridan boshlab matn lingvistikasi yoʻnalishi tez surʼatlarda rivojlana boshladi. Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarida matn lingvistikasi boʻyicha davriy nashrlar, ilmiy maqolalar toʻplami, monografiya, oʻquv qoʻllanmalari, darsliklar nashr qilindi. Rus tilshunosligida matn lingvistikasining shakllanishi va rivojlanishida I.R.Galperin, K.Kojevnikova, E.A.Referovskaya, G.Ya.Solganik, V.G.Gak, M.V.Lyapon, O.I.Maskalskaya, O.L.Kamenskaya kabi olimlarning xizmati katta boʻlgan. Matnni oʻqib tushunish va uni qayta bayon etishda adabiy til meʼyoriga rioya qilish, matn asosida yozma nutq shaklini yaratishda matn uslubini hisobga olgan holda til birliklaridan foydalana olish koʻnikmasini shakllantirish, orfoepik va orfografik meʼyorlar boʻyicha koʻnikmalarni rivojlantirish “Matn va lugʻat ustida ishlash” fanining asosiy maqsad va vazifalaridan hisoblanadi. Shu oʻrinda fikrimizni amaliy isboti sifatida quyidagi: 8-sinf ona tili darsligida keltirilgan “Soʻz mavjlanganda” matni asosida koʻrib chiqamiz. Matn asosida tinglab tushunishga, yozma nutq va ogʻzaki nutq koʻnikmalarini shakllantirishga doir mashq va topshiriqlar tuzib chiqiladi

SOʻZ MAVJLANGANDA

Xoja Fazlulloh Abullaysiy - Samarqand akobiridindur. Faqih Abullays avlodidandur. Fiqhda ani Abu Hanifayi Soniy derlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib kaffasida tutarlar erdi. Sayid Sharifning shogirdi erdi va Sayid oʻz xatlari bila ulumi dars ayturgʻa ijozatnomalar aning uchun bitib erdi. Faqir ikki yil alarning qoshida sabaq oʻqub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, «farzand» der erdilar. Bovujudkim, Samarqandning aʼlami ulamosi erdi, sheʼr va muammogʻa dagʻi moyil erdi. Bu matlaʼ alarningdurkim:

Qadi chun sarvi tu jon ast maro, balki ravon,
Soʻyam, ey sarv, ravon shavki, fido sozam jon.

Xoja Samarqandda Tangri taolo rahmatigʻa bordi va oʻz xonaqohida jaddining gunbazida madfundur.

«Majolis un-nafois»

Demak, yuqoridagi matnni, eng avvalo, ogʻzaki nutq koʻnikmasini rivojlantirish uchun ifodali oʻqib chiqiladi. Shu bilan birga, matn oʻqituvchi tomonidan audio matn

tarzida tayyorlanib, o'quvchilarga taqdim etiladi, bu orqali o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalari shakllanadi. Matnni tinglagandan so'ng, shu matn asosida topshiriqlar beriladi.

Quyida yuqorida berilgan matn asosida tuzilgan topshiriqlarni ko'rib chiqamiz:

1-topshiriq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning izohini, "Izohli lug'at"dan toping va yod oling.

So'zlar izohi:

Iltifot [ar.-o'girish, burish, lutf qilish, marhamat, e'tibor]. Kishiga qilingan marhamat, diqqat-e'tibor, yaxshi munosabat. (O'TIL.II jild.199-b).

Fiqh [ar.-bilim, tushuncha; musulmon huquqi]. Din, shariat qonun-qoidalarini haqidagi fan, islom huquqshunosligi, ilohiyot. (O'TIL.IV jild.350-b)

Xonaqoh [f.-xilvatxona, uzlat, darvishlar makoni]. Masjidning namoz o'qiladigan odatda, keng va katta xonasi. (O'TIL.IV jild. 412-b).

Shogird [f.-o'rganuvchi, xalifa; izdosh, o'quvchi]. Biror usta, mutaxassis yoki olimdan hunar, kasb, bilim o'rganayotgan shaxs. (O'TIL.IV jild.590-b)

Farzand [f.-bola, o'g'il-qiz;nasl]. Bitta ota-onadan dunyoga kelgan bola, o'g'il yoki qiz bola. (O'TIL.IV jild.378-b).

Avlod [a.-o'g'illar, bolalar, nasl]. Ota-bobodan qolgan nasl (ajdodga nisbatan). (O'TIL.I jild. 32-b).

2-topshiriq. Matn mazmunini uchta gap bilan ifoda eting.

So'z - har qanday qudratga ega kuch.

Ilm insonni doimo yaxshilikka yetaklaydi.

Yuksak iste'dodlar hech qachon unutilmagay.

3-topshiriq. Matn mazmuniga xos hikmatli so'zlar va maqollar keltiring.

• Ustoz - otangdek ulug'. (Xalq maqoli)

• Oz-oz o'rganib dono bo'lur,

Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. (Alisher Navoiy)

• Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim. (Alisher Navoiy)

• Ustozsiz shogird - jonsiz terak. (Xalq maqoli)

4-topshiriq. Matn qaysi uslub qoidalariga mos ravishda yozilganligini aniqlangan.

Matn badiiy uslub qoidalariga mos ravishda yozilgan. Chunki, fiqh, madfun, iltifot, ulamo kabi so'zlar, asosan, badiiy uslubda ko'p qo'llaniladi.

Yuqorida keltirilgan matn topshiriqlar asosida o'qituvchi bilan birgalikda o'zlashtiriladi, bu o'rinda, o'qituvchining ilmiy salohiyati ham, albatta, katta ahamiyatga ega. Chunki yangi nashrdagi va eski nashrdagi darsliklar o'rtasida anchagina tafovutlar mavjudligini sezish qiyin emas. Xususan, yangi nashr darsliklarining asosiy predmeti matnlar va lug'atlar ustida ishlash bo'lmoqda. Boisi, matnlar orqali o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, turli xil vaziyatlarda

ko'nikmalarni qo'llay olish kabi birinchi galdagi vazifalarni tashkil etadi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar metodikasi ham shu yo'sinda olib boriladi va buning natijasi o'laroq o'quvchilarda hayotiy muammolarni hal etishda yetarlicha ko'nikma hosil bo'ladi. Masalan, Xalqaro IELTS imtihonining shakllari ham til darajasini yuqori darajada o'zlashtirganlik mahoratini aynan yozish (writing), o'qish (reading), tinglash (listening), gapirish (speaking) kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, davlatimiz rivoji uchun birinchi navbatda, o'qib-o'rganib kelayotgan yosh avlod, yosh kadrlar malakali va bilimli bo'lishlari zarur. Maktab darsliklari, jumladan, ona tili darsligini eslaganda xayolga faqat qoida yod olish, mashq bajarish kabi mashg'ulotlar keladi. Bu, albatta, barcha o'quvchilar diqqatini tortmaydi, chunki har bir o'quvchi - har bir o'zga olam demak. Zero, ularning hammasi tilshunos yoki adabiyotshunos bo'lmaydi, har birining qiziqishlari rang-barang. Olimlarimiz xuddi shu narsalarni o'ylagan holatda maktab darsliklarida, asosan, matnlar ustida ishlash, ular asosida tuzilgan topshiriqlarni o'quvchilar bilan birgalikda, ularning fikrlarini hurmat qilgan holda bajarish va ularning fikrlash doirasini kengaytirish, o'ylashga imkon topishga majbur etish, nutqiy notiqqligini mukammal bo'lmasa-da, har holda me'yoriy holatga keltirish kabi masalalarni ko'zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari. Filol.fan.nomz.dis. Toshkent, 1993, 7-b.
2. S.Muhamedova, M.Saparniyozova. Matn lingvistikasi, Toshkent-2011.5-b.
3. Muhammadjon Qodirov, Hamid Ne'matov. 8-sinf ona tili darsligi, Toshkent, 2019, 90-b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, I jild, 32-b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, II jild, 199-b.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, IV jild, 350-378-412-590-betlar.
7. M.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, M.Saparniyazaova, Matn lingvistikasi, O'quv qo'llanma, Toshkent, 2020, 5-7-bet.